

N. MAMADINOVA
M. AHMEDOVA

ATROFIMIZDAGI OLAM

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining
1-sinfi uchun darslik

Tuzatilgan va toʻldirilgan toʻrtinchi nashri

*Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan*

«OʻQITUVCHI» NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT – 2019

UO'K 502.3/075.2
KBK 20.1ya71
M 18

Mas'ul muharrir:

Nigmatov Asqar — geografiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

- Alimqulov N.* — Nizomiy nomidagi TDPU geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasini mudiri, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
- Sharipov Sh. M.* — Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU geografiya va tabiiy resurslar fakulteti dotsenti.
- Azizova N. Q.* — Toshkent shahar Yakkasaroy tumanidagi 144-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.
- Xo'jayeva M. I.* — Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi 142-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.



Darslikdagi matnlar o'qituvchi yoki ota-onalar tomonidan o'quvchilarga o'qib berish uchun mo'ljallangan. O'quvchilar o'qishni o'rganganlaridan so'ng mustaqil ravishda mavzularni takrorlashda foydalanishlari mumkin.

Shartli belgilar:



Faollashtiruvchi savol va topshiriqlar (o'qituvchi tomonidan o'qib, tushuntiriladi)



Topishmoq (*topishmoq matni o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi*)



O'qituvchi tomonidan o'qib beriladigan va tushuntiriladigan matn



O'quvchi tomonidan o'qiladigan matn



Ota-ona yoki boshqa kattalar bilan birgalikda uyda bajariladigan topshiriq



Dars tugadi

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi
mablag'lari hisobidan chop etildi.**

- © N. Mamadinova, M. Ahmedova.
© «Huquq va Jamiyat», 2016, 2017, 2018, 2019.
© «O'qituvchi» NMIU, 2019.

ISBN 978-9943-22-264-9

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| 1. KIRISH. ATROFIMIZDAGI OLAM | 4 |
| 2. BIZNING MAKTAB | 6 |
| 3. BIZNING SINFI | 8 |
| 4. BIZNING MAHALLA | 10 |
| 5. KO'CHADA YURISH QOIDALARI | 12 |
| 6. QUYOSH. OY | 14 |
| 7. YIL FASLLARI | 16 |
| 8. KUZDA O'SIMLIKLAR HAYOTI | 18 |
| 9. KUZGI MEHNAT | 19 |
| 10. O'SIMLIKLAR DUNYOSI | 20 |
| 11. O'SIMLIK QISMLARI VA ULARNING O'SISHI | 22 |
| 12. O'SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI | 24 |
| 13. DALALARDA YETISHTIRILADIGAN EKINLAR | 26 |
| 14. XONA O'SIMLIKLARI | 28 |
| 15. UY HAYVONLARI | 30 |
| 16. PARRANDALAR | 32 |
| 17. YOVVOYI HAYVONLAR | 34 |
| 18. QUSHLAR | 36 |
| 19. HASHAROTLAR | 38 |
| 20. QISH FASLI | 40 |
| 21. SUV HAVZALARINING MUZLASHI | 41 |
| 22. O'ZBEKISTON TABIATI | 42 |
| 23. SUV | 44 |
| 24. SALOM BAHOR | 46 |
| 25. BAHORGI TENGKUNLIK | 48 |
| 26. MEN YASHAYDIGAN QISHLOQ (SHAHAR) TABIATI | 50 |
| 27. BIZNING BOG' | 52 |
| 28. BIZ VA TABIAT | 54 |
| 29. TABIATNI ASRASH | 56 |
| 30. SALOM YOZ | 58 |
| 31. YOZGI MEHNAT | 60 |
| 32. YOZGI TA'TILDA TABIAT QO'YNIDA DAM OLISH | 62 |

KIRISH. ATROFIMIZDAGI OLAM



1. Akmal bilan Sohibaning atrofida nimalarni ko'ryapsiz?
2. Sizning atrofingizda kimlar bor?



1. Sizning atrofingizda nimalar bor?
2. Sizni ko'chada nimalar o'rab turadi? Uyda-chi?



BIZNING MAKTAB



1. Rasmda kimlar tasvirlangan?
2. Ular qayerda va nima bilan mashg'ul?



1. Rasmlarda qaysi darslar tasvirlangan?
2. Ular qayerda o'tkaziladi?



Rasmdagi narsalar qaysi darslarga oid?



Rasmlardagi odamlar qayerda va nima bilan mashg'ul?



4–5-betlardagi rasmdan maktabni ko'rsating va u haqida fikr yuriting.



1. Quyidagi rasmlarda nimalar tasvirlangan?
2. Ulardan qayerda va nima maqsadda foydalaniladi?



BIZNING SINIF



Rasmdagi sinf xonasi va dars jarayonini tavsiflang.



Qaysi o'quvchilar qanday nojo'ya harakat qilyaptilar?



Rasmdagi bolalar nima qilishyapti?
Sinf xonasini shamollatish zarurligi
sababini tushuntiring.



Bular to'g'ri



Bular noto'g'ri



Quyidagi holatlarga munosabatingizni
bildiring.




BIZNING MAHALLA



Sizning mahallangizda bu joylardan qaysilari mavjud? U joylarda nimalar bilan shug'ullaniladi?

Bu joylar nima uchun kerak?





1. Rasmdagi kishilar nima bilan mashg'ul?

2. Siz o'z manzilingizni bilasizmi?



Rasmlarda mahallaning qaysi joylari tasvirlangan?

1



2



3



KO'CHADA YURISH QOIDALARI



Rasmda chorraha tasvirlangan.
O'quvchilar nega to'xtab turibdi?




O'quvchilar nega yo'lni kesib o'ta boshladilar?



4–5-betlardagi rasmdan ko'chalarni, chorrahalarini, piyodalar yo'laklarini, piyodalar o'tish joylarini, svetoforlarni ko'rsating. Transport vositalarining nomlarini ayting.



E'tiborsiz bo'lsa kim,
Ko'zlarimga, – deydi, – boq.
Yo'l ko'rsatar hammaga,
Doimo uchta o'rtoq.



Sветофор чироqlari nima deydi?



Ko'chani piyodalar uchun ajratilgan
joydan kesib o'tish lozim.



Yo'ldan bu tariqa
o'tish mumkin.



Bu tariqa o'tish
mumkin emas.



Rasmlardagi holatlarga o'z munosabatingizni bildiring.



QUYOSH. OY



Rasmlar asosida quyoshning ob-havoga ta'siri haqida fikr bildiring.



Quyosh yerni yoritadi. Quyosh yerni isitadi. Odamlar quyoshning yorug'ligi va issiqligisiz yashay olmaydilar. Hayvonlarga ham quyoshning yorug'ligi va issiqligi kerak. O'simliklarga ham.



Sharqdan chiqar tong chog'i,
G'arbda uning yotog'i.





Rasmlardagi quyoshni ta'riflang. U qayerdan chiqib qayerga botadi?



Rasmlarda kunning qaysi qismlari tasvirlangan? Buni qanday bilib oldingiz?



YIL FASLLARI



1. Har bir faslni alohida tavsiflang.
2. Qaysi faslda ob-havo issiq, qaysi-nisida esa sovuq? Nima sababdan?




G'ir-g'ir esar, o'zi yo'q,
Bir sir kezar, izi yo'q.



KUZDA O'SIMLIKLAR HAYOTI



Kuzda mevalar pishib yetiladi. So'ng ularning barglari sarg'ayib to'kiladi. Dalalarda paxtalar ochiladi. Sabzavot va poliz ekinlari pishadi. Dalalarda kuzgi don ekinlari ekiladi.



Xurmo daraxtining qaysi rasmi kuzga oid?



KUZGI MEHNAT



Kuzda paxta terib olinadi. Bog'lar-dagi mevalar g'arq pishadi. Dalalar-dagi hosil yig'ib olinadi. Ekin may-donlari haydaladi. Bozor rastalari noz-ne'matlar bilan to'ladi.



O'SIMLIKLAR DUNYOSI



O'simliklar dunyosi daraxt, buta va o't-o'lanlardan iboratdir.

Insonlar tomonidan bog'larda, dalalarda yoki tomorqalarda o'stiriladigan o'simliklar madaniy o'simliklar deyiladi.


O'rmon, dala-dasht, cho'l, qir va adirlarda o'zi o'sadigan o'simliklar yovvoyi o'simliklar deb ataladi.





Rasmdagi daraxt, buta va o't-o'lanlarni ajratib ko'rsating.

Daraxtlarning barglarini eslab qoling:




1. Daraxt, buta, o't-o'lanlarni ajrating.
2. Ularning qaysilari madaniy o'simliklar deyiladi?




O'SIMLIK QISMLARI VA ULARNING O'SISHI



Aksariyat o'simliklarning ildizi, shoxi, bargi, guli va mevasi bo'ladi.



Rasmlardagi o'simliklarning ildizi, shoxi, bargi, guli va mevasini ko'rsating.







Rasmlarni izohlang.



Qizil, sariq qoziqlarim,
Bizga ular oziqlarim.



O'simliklar ildizlarining xilma-xilligi.



1. Sabzavotlarning nomlarini ayting.
2. Siz yana qanday ildizmevali sabzavotlarni bilasiz?



Rasmlarda nimalar tasvirlangan?


1



2



3



O'SIMLIKLARNING XILMA-XILLIGI

Daraxtlar



Terak



Qayrag'och




Eman



Kashtan

Butalar




Qizil qorag'at



Anor



Nastarin



Na'matak


O't-o'lanlar



Rayhon



Ajriq



Yantoq



Qamish

Gullar



Moychechak



Lola




Atirgul



Boychechak



Chap tomondagi gulning tuzilishiga qarang. O'ng tomondagi gullarning qismlarini ayting.



1. O'simliklarning turlarini ayting.
2. Ular bir-biridan nimalari bilan farq qiladi?



DALALARDA YETISHTIRILADIGAN EKINLAR



Yurtimizda dalalarda turli sabzavotlar, g'alla, paxta, makkajo'xori, qovun, tarvuz va boshqa ekinlar yetishtiriladi.

Ekinlar biz uchun muhim bo'lgan foydali oziqalarni beradi. Ular foydali vitaminlarga boy. Shuning uchun meva va sabzavotlarni ko'p iste'mol qilishimiz kerak.



Rasmlardan dala, tomorqa, bog' va issiqxonani ajratib ko'rsating.



Diqqat! Meva va sabzavotlarni iste'mol qilishdan oldin yaxshilab toza suvda yuving!



1. Rasmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining nomlarini ayting.
2. Ulardan qaysilari dalada, tomorqada, bog'da, issiqxonada o'sadi?



XONA O'SIMLIKLARI



Rasmni izohlang.



Xona o'simliklarining parvarishiga katta e'tibor berish kerak.





Uyimizda, maktabda, ishxona va boshqa joylarda xona o'simliklari o'stiriladi. Chunki ular xonaga chiroy beradi va havoni tozalab turadi.


Xona o'simliklari asosan gultuvaklarda o'stiriladi.



Qanday o'simliklarni xonada o'stirsa bo'ladi? Ularning nomlarini ayting.



Rasmdan foydalanib, xona gulini o'stiring. Diqqat! Barg issiqroq joyda turishi lozim. Gulingizni parvarishlang.



UY HAYVONLARI




Uy hayvonlari kishilarning hovlilarida va fermalarda yashaydi. Kishilar ularni boqadi. Uy hayvonlari kishilar uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni beradi.

Sigirdan teri, go'sht va sut olinsa, qo'ydan teri, go'sht, yog' va jun olinadi.



Uy hayvonlarining nomlarini ayting. Ularni nima maqsadda boqadilar?






1. Uy hayvonlarini ko'rsating.
2. Kishilar nimalar bilan mashg'ul?



Diqqat! Uy hayvonlari tepishi, suzishi, tishlashi yoki tirnashi mumkin.




Uy hayvonlarini ko'rsating.



PARRANDALAR



Parrandalar ham kishilar tomonidan hovli va fermalarda boqiladi. Chunki ulardan har xil mahsulotlar olinadi.



Tovuqdan go'sht, tuxum olinadi.


O'rdak va g'ozdan esa go'sht, tuxum, par olinadi.

Bedanadan parhez go'sht va tuxum olinadi.

Hozir chorvadorlarimiz tuyaqushlarni ham boqmoqdalar. Ulardan ham parhez go'sht va tuxum olinadi.

Diqqat! Uy hayvonlari va parrandalarga yaqinlashgandan keyin qo'lni sovunlab yuvishni unutmang!





1. Parrandalarning nomlarini ayting.
2. Qizcha nima bilan mashg'ul?



Yerda yuradi asta,
Suvda suzishga usta.
Qo'shiqlari g'oq-g'oq-g'oq,
Oyog'ida par paypoq.



Parrandalarni ajratib ko'rsating.



YOVVOYI HAYVONLAR



Yovvoyi hayvonlar o'rmon, tog', cho'l, dasht, daryo va dengizlarda yashaydilar. Ularning ba'zilari o't-o'lanlar, don-dunlar va mevalar bilan oziqlanadi. Ya'ni ularning oziqasi o'simliklardir. Ayrimlari esa boshqa hayvonlarni ovlab kun kechiradi, ya'ni ular yirtqichlardir.



Hayvonlarning nomlarini ayting. Ular turli fasllarda qanday yashaydi?

O'simliklar bilan oziqlanadiganlar



Yirtqichlar



Ham o'simlik, ham jonivorlar bilan oziqlanadigan hayvonlar ham mavjud.



Rasmlardagi ertaklarda qanday hayvonlar qatnashgan?

Suvda suzadigan va yashaydigan hayvonlarning nomlarini ayting.



Hayvonlarning nomlarini ayting. Ular haqida nimalarni bilasiz?



1



2



3



QUSHLAR



Qanotlari va patlari bor jonivorlar qushlar deb ataladi. Qushlarning aksariyati don, o'simlik va mevalar bilan oziqlanadi. Ular hasharotlarni, qurt-qumursqalarni ham yeydilar. Lekin burgut, lochin kabi yirik qushlar mayda hayvonlar va qushlarni ovlab oziqlanadilar. Suvda baliq ovlaydigan qushlar ham bor.



Oddiy so'zga aylanar tili,
Qafasni xush ko'rmas dili.



Qushlarning nomlarini ayting.





Qaldirg'ochlar ko'pincha uylarning peshtoqlariga uya qurib yashaydilar. Lekin ular uy parrandalari emas.

Bedana uyda boqiladi. Ammo ular yovvoyi holda ham uchraydi. Bulbul eng yoqimli sayraydigan qushdir. Tuyaqush ucha olmaydi. Lekin u juda tez yuguradi.



Diqqat! Qishda qushlar oziqa topishga qiynaladi. Ularga yordam bering.




1. Ertaklarning nomlarini ayting.
2. Uchar ajdarhoni va uchar otni qush deb atasa bo'ladimi?



HASHAROTLAR



Hasharotlar mayda jonivorlardir. Ularning ko'pchiligini siz uyingizda, ko'chada, bog'larda va ariq bo'ylarida uchratgansiz.




Rasmlardagi libos va matolar pilladan olinadi.

Ipak qurti tut daraxti barglarini yeydi. Kishilar bu qurtlarni boqib pilla oladilar.



Kishilar asalarilardan asal oladi. Demak, ayrim hasharotlar kishilarga foyda keltirar ekan.





Chigirtka, may qo'ng'izi kabi hasharotlar zararli hisoblanadi. Lekin ularning ham tabiatda o'z o'рни bor.


Hasharotlar kichkina bo'lsa-da, ularning tanasi murakkab tuzilgan.

Kapalak tanasining tuzilishi

qanotlari

ko'kragi

tanasi



boshi


oyoqlari



Qanot qoqib guldan gulga qo'nadi, Shu onda-chi, guldan gullar unadi.



Hasharotlar nomlarini ayting.




QISH FASLI



Qishda havo juda sovib ketadi.
Hamma yoq oppoq qorga burkanadi.
Ko'lmaklar usti muzlaydi.



Rasm asosida qish haqida hikoya qiling.



1. Rasmlarga qarab „Yangi yil“ bayrami haqida hikoya qilib bering.
2. Sizing oilangizda „Yangi yil“ bayrami qay tariqa nishonlanadi?


SUV HAVZALARINING MUZLASHI



Rasmlar asosida qishda ko'chada yurishning xavfi haqida mulohaza yuring.



Ushbu holatlarning salbiy tomonini toping.



O'ZBEKISTON TABIATI



O'zbekiston – go'zal, boy va fayzli diyor. Biz Vatanimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Bunday o'lkada yashash biz uchun baxtdir.



1. Rasmlardan cho'l, tog'lar, daryo, qir-adirlar va ko'l rasmini ko'rsating.
2. Siz cho'l, tog'lar, daryo, ko'l va qir-adirlardan qaysilarini ko'rgan-siz?



Rasmlarda Vatanimizning qanday joylari tasvirlangan?



Ushbu darslikning 4–5-betlaridagi rasmdan foydalanib, Vatanimiz tabiati haqida hikoya qiling.



Rasmdan foydalanib, Vatanimiz tabiati haqida kichik hikoya tuzing. Uni ogʻzaki soʻzlab bering.




SUV



Suv inson uchun eng kerakli ne'matdir. Suvsiz hayot yo'q. Biz suvni ichamiz, undan choy qaynatishda, ovqat tayyorlashda foydalanamiz.

Suvda kiyimlarimizni, idish-tovoqlarimizni yuvamiz. O'zimiz ham suv bilan yuvinamiz. Hayvonlar ham suv ichadi.



Suv havzalarini iflos qilmaslik kerak.

SUVNI TEJAB ISHLATING!

Daryolar suvni tog'lardagi muzliklardan oladi. Kanallar va ariqlar suvni daryolardan oladi. Suv ekinzorlarni sug'orish uchun ariq va kanallardan olinadi. Buloq va quduqlar ham suv manbalari hisoblanadi.



Suv tozalangan holda xonadonlarga yetkazib beriladi.



Suvdan foydalanganda nimalarga e'tibor berish kerak?

Qaynatilmagan suvni ichmang! U sog'lig'ingiz uchun zararli.




1. Rasmlardagi holatlarga qarab suv havzalaridagi xavfsizlik haqida nima deya olasiz?
2. Tejamkorlik haqida-chi?



SALOM BAHOR



Bahorda tabiat uyg'onadi. Quyosh nuridan qorlar erib ketadi. Daryo va anhorlar suvga to'лади. O't-o'lanlar unib chiqadi. Gullar ochiladi. Boychechak, lola, lolaqizg'aldoqlar ko'zni quvontiradi. Daraxtlar kurtak ochadi va barg yozadi. Uzoq o'lkalardan qushlar uchib kela boshlaydi.



Rasmlarga qarab bahor darakchilari haqida kichik hikoya tuzing.



Bahorda asalarichilar o‘z asalarilarini gullagan bog‘lar va dalalarga olib chiqadilar. Dalalarda bahorgi ishlar avj oladi. Daraxt va gul ko‘chatlari ekila boshlaydi.



Rasmlarga qarab bahor va bahorgi ishlar haqida hikoya tayyorlang.



BAHORGI TENKGUNLIK



Qishda kun qisqa, tun esa uzun bo'ladi. Bahor kelishi bilan kun asta-sekin uzaya boradi. Bir kun kelib kun va tunning uzunligi tenglashadi. Ya'ni kunning uzunligi qancha bo'lsa, tunniki ham shuncha bo'ladi. Mana shu vaqt bahorgi tengkunlik deb ataladi.





Bu paytda kunlar ancha ilib qoladi. Qorlar erib, boychechaklar chiqadi. Daraxtlar kurtak chiqaradi va gullaydi. Aynan mana shu kunlarda kishilar Navro'z bayramini nishonlaydilar.



„Navro'z kayfiyati“ degan iboraning mazmunini rasmlarga qarab izohlang.



Rasmlar asosida bahorgi tengkunlik haqida hikoya tayyorlang.



MEN YASHAYDIGAN QISHLOQ (SHAHAR) TABIATI



Bahodir hikoya qiladi: „Mening qishlog‘im tog‘ yonbag‘rida joylashgan. Qishlog‘imning havosi toza. Ko‘chalarida daraxtlar va gullar ko‘p“.

Akmal esa, o‘z shahri bilan faxrlanadi. U: „Mening shahrimda mashinalar, zavod va fabrikalar ko‘p. Ko‘chalari keng



va yorug'. Binolari baland va ko'rkam. Shahrim tabiati toza va beg'ubor. Chunki shahrim ko'chalarida daraxtlar, maysalar va gulzorlar ko'p. Istirohat bog'i bizning sevimli dam olish maskanimiz," — deydi.




4–5-betlardagi rasmdan shahar va qishloq uylarini ajratib ko'rsating.

Rasmning qishloq qismini tavsiflang.

Rasmning shahar qismini tavsiflang.



Rasmlar asosida hikoya tayyorlang.



BIZNING BOG‘



Bog‘imizda har xil mevali daraxtlar bor. Oilamiz a‘zolari bahordan kech kuzgacha daraxtlarni avaylab parvarish qiladilar. Shuning uchun ham bog‘imizdagi daraxtlar serhosil. Biz bog‘dagi ishlarda kattalarga yordamlashamiz. Shirin olma, nok va behilarni yeganimizda mehnatimiz zoye ketmaganini his qilamiz.





Meva va sabzavotlarni ajrating.
Ularning nomlarini ayting.



Bizning o'lkamizda yetishtiriladigan
va yetishtirilmaydigan mevalarning
nomlarini ayting.



BIZ VA TABIAT



„Tabiat bilan oshno“ degan ta’rif quyidagi rasmlardagi bolalarga va kattalarga mos keladi:



O‘lkamiz tabiat in’omlariga juda boy. Bepoyon qir-adirlar, go‘zal bog‘-rog‘lar, maftunkor tog‘lar, tiniq suvlar kishilarni doimo o‘ziga chorlaydi.






Egri-bugri tuyalar,
Bir-biriga suyalar.
Qotib turar yil sayin,
Bag'rida xazina, sir.



4–5-betlardagi rasmdan foydalanib,
tabiat manzarasini tavsiflang.



1. Rasmlardagi dorivor o'simliklarning qaysilarini taniysiz?
2. Asalning dorivorlik xususiyatlarining sababini 2-rasmga qarab aytib bering.



„Tabiatga oshno“ bo'lgan bola qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz? Shu haqida yozing.



TABIATNI ASRASH

Kishilar xushmanzara joylarga sayohatga chiqadilar va rohatlanib dam oladilar. Vatanimiz tabiatini asrash va saqlab qolish bizning burchimiz hisoblanadi.



Tabiat qo'yniga sayohat davrida nimalarga e'tibor berish zarur?



Bu to'g'ri



Bu noto'g'ri



Quyidagi rasmlardan qaysi biri to'g'ri, qaysinisi noto'g'ri?
Javobingizni asoslab bering.



Rasmga qarab daraxtni qanday parvarishlash kerakligi va uning meva berguniga qadar kuzatiladigan jarayon haqida so'zlab bering.



Tabiatni asrash uchun odamlar nimalar qilishlari va nimalarni qilmasliklari lozimligini yozing.



SALOM YOZ




Rasmlardan foydalanib, yoz manzarlari haqida soʻzlab bering.



„Yoz noz-neʼmatlari“ iborasining maʼnosini yuqoridagi rasmlardan foydalanib tushuntiring.



Rasmlardan foydalanib, yoz haqida hikoya tayyorlang.



YOZGI MEHNAT



Bug'doy, arpa, makkajo'xori kabi don ekinlari ayni yozda pishib yetiladi. Ularni o'rib, yig'ib oladilar.





Bog'larda ayrim mevalar g'arq pishadi. Dalalarda sabzavotlar va poliz ekinlari yetiladi. Dehqonlarimiz bu noz-ne'matlarni siz va bizga yetkazish uchun tinimsiz mehnat qiladilar.



Siz ham ta'tilda kattalarga yordam berasizmi?

Yozda serob bo'lgan xilma-xil sabzavot va mevalarni kishilar qayta ishlaydilar. Qishda esa bu konservalangan mahsulotlarni maza qilib iste'mol qiladilar.



Rasmlar asosida kishilarning yozdagi mehnati haqida hikoya tayyorlang.



YOZGI TA'TILDA TABIAT QO'YNIDA DAM OLISH



Yozda havo juda isib ketadi. Kunlar uzun, tunlar esa juda qisqa bo'ladi. O'quvchilar yozgi oromgohlarda dam oladilar.



Rasmdagi bolalar nima bilan mashg'ul?



Rasm asosida bolalarning yozgi o'yinlari haqida so'zlab bering.

Yozgi ta'tilingiz maroqli o'tsin,
aziz bolajonlar!

